

YONG‘IN XAVFSIZLIGI OYLIIGI DOIRASIDA PROFILAKTIK TADBIRLARNING SAMARADORLIGI

X.F.Matyaqubov

“Janubiy” KB va NSM obyektlarida FVB FVP katta inspektori katta leytenant

D.M.Eshboltayev

“Janubiy” KB va NSM obyektlarida FVB FVP inspektori katta leytenant

S.S.Teshayev

“Janubiy” KB va NSM obyektlarida FVB FVP inspektori leytenant

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda har yili o‘tkaziladigan yong‘in xavfsizligi oyligi doirasida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlarning mazmun-mohiyati, ularning aholi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi madaniyatini oshirishdagi o‘rni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, targ‘ibot-tashviqot ishlari, amaliy mashg‘ulotlar va nazorat tadbirlarining natijalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yong‘in xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi oyligi, profilaktika, targ‘ibot-tashviqot, favqulodda vaziyatlar, aholi xavfsizligi.

Bugungi kunda yong‘in xavfsizligini ta‘minlash jamiyat barqarorligi va aholi hayotini muhofaza qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yong‘inlar ko‘pincha inson omili, ya‘ni ehtiyotsizlik, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Shu bois yurtimizda yong‘inlarning oldini olish, aholi o‘rtasida mas‘uliyatni kuchaytirish maqsadida har yili yong‘in xavfsizligi oyligi o‘tkaziladi. Ushbu oylik doirasida tashkil etiladigan profilaktik tadbirlar yong‘in xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yong‘in xavfsizligi oyligining mazmuni va vazifalari

Yong‘in xavfsizligi oyligining asosiy maqsadi — yong‘inlarning oldini olish, aholi va tashkilotlarda yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish madaniyatini shakllantirishdan iborat. Oylik davomida aholi yashash joylari, ta‘lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va ijtimoiy obyektlarda tushuntirish ishlari olib boriladi, yong‘in xavfsizligi holati o‘rganiladi.

Profilaktik tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari

Profilaktik tadbirlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borish;

- yong‘in xavfsizligi bo‘yicha ma‘ruzalar va suhbatlar tashkil etish;
- o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar va evakuatsiya mashqlarini o‘tkazish;
- yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan obyektlarni tekshirish va kamchiliklarni bartaraf etish;
- ogohlantiruvchi bukletlar, plakatlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish.

Mazkur tadbirlar aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi hamda yong‘in sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilish malakasini shakllantiradi.

O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yong‘in xavfsizligi oyligi davomida amalga oshirilgan profilaktik tadbirlar natijasida aholi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish darajasi sezilarli oshadi. Ayniqsa, ta‘lim muassasalarida o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar yoshlar ongida mas‘uliyat hissini kuchaytiradi. Mahalla va oilalarda olib borilgan tushuntirish ishlari esa maishiy yong‘inlar sonining kamayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Profilaktik tadbirlar natijasida:

- yong‘in xavfi bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha xabardorlik oshadi;
- yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan choralar kuchayadi;
- aholi va xodimlarning favqulodda vaziyatlarda harakatlanish ko‘nikmalari shakllanadi;
- yong‘inlar soni va ularning oqibatlarini kamayadi.

Bu esa yong‘in xavfsizligi oyligining amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yong‘in xavfsizligi oyligi doirasida o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar yurtimizda yong‘inlarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadbirlar nafaqat nazorat va tekshiruvlar, balki aholi ongini yuksaltirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Kelgusida ham bunday tadbirlarni tizimli va muntazam ravishda tashkil etish yong‘in xavfsizligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari.
3. Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar.
4. Favqulodda vaziyatlar va yong‘in profilaktikasiga oid ilmiy maqolalar to‘plami.



**Research Science and
Innovation House**